



**GENESIS, EVOLUTION AND METHODOLOGICAL
SIGNIFICANCE OF PHILOSOPHICAL IDEAS ON THE
FORMATION OF AN ENLIGHTENED SOCIETY IN THE NEW
UZBEKISTAN**

Achilova Nilufar Norbutaevna

Uzbek-Finnish Pedagogical Institute,

Teacher of the Department of "National Idea and Philosophy"

Phone. (94) 251 76 62

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16959126>

ARTICLE INFO

Received: 20th August 2025

Accepted: 26th August 2025

Online: 27th August 2025

KEYWORDS

Renewal Uzbekistan, Central Asia, enlightenment, enlightenment, enlightened society, Central Asian Renaissance, modernity, enlightenment of the Avesta, Islamic enlightenment, enlightenment of Farabi, enlightenment of M. Behbudi.

ABSTRACT

This scientific article briefly describes the socio-philosophical views of Central Asian thinkers on enlightenment as a historical source: genesis, evolution, having methodological significance in the formation and development of an enlightened society in New Uzbekistan, and also examines their historical significance and role. Building an enlightened society requires work on material and spiritual values, passed down from ancestors to generations as a historical heritage, and using them as a solid foundation. After all, the stronger the foundation, the more durable the building built on it.

**ГЕНЕЗИС, ЭВОЛЮЦИЯ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ
ФИЛОСОФСКИХ ИДЕЙ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ПРОСВЕЩЕННОГО
ОБЩЕСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

Ачилова Нилуфар Норбутаевна

Узбекско-Финский педагогический институт,

Преподаватель кафедры «Национальная идея и философия»

Телефон. (94) 251 76 62

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16959126>

ARTICLE INFO

Received: 20th August 2025

Accepted: 26th August 2025

Online: 27th August 2025

ABSTRACT

В данной научной статье кратко описываются социально-философские взгляды мыслителей Центральной Азии на просветительство как исторический источник: генезис, эволюции, имеющий методологическое значение в становлении и развитии просвещенного общества в Новом Узбекистане, а также рассматриваются их историческое значение и роль. Построение просвещенного общества требует работы над материальными и духовными ценностями, передаваемыми от предков к поколениям как историческое наследие, и использования их в качестве



KEYWORDS

Обновление Узбекистан,
Центральная Азия,
просвещение,
просветительство,
просвещение,
просвещенное общество,
среднеазиатский
ренессанс, современность,
просвещение «Авесты»,
исламское просвещение,
просвещение Фароби,
просвещение М. Бехбуди.

прочного фундамента. Ведь чем прочнее фундамент,
тем долговечнее построенное на нем здание.

**YANGI O'ZBEKISTONDA MA'RIFATLI JAMIYATNI SHAKLLANTIRISH
HAQIDAGI FALSAFIY G'OYALARNING GENEZISI,
EVOLYUTSIYASI VA METODOLOGIK AHAMIYATI**

Achilova Nilufar Norbutayevna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
"Milliy g'oya va falsafa" kafedrasining o'qituvchisi
Tel. (94) 251 76 62

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16959126>

ARTICLE INFO

Received: 20th August 2025
Accepted: 26th August 2025
Online: 27th August 2025

KEYWORDS

Yangilanayotgan
O'zbekiston, Markaziy Osiyo,
ma'rifat, ma'rifatparvarlik,
ma'rifatchilik, ma'rifarli
jamiyat, Markaziy Osiyo
Uyg'onish davri, jadidchilik,
"Avesto" ma'rifati, Islom
ma'rifati, Forobiy ma'rifati,
M.Behbudiy ma'rifati.

ABSTRACT

Ushbu ilmiy maqolada Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirish va rivojlantirishda metodologik ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy manba: genezisi, evolyutsiyasi sifatida Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning ma'rifat, ma'rifatparvarlik, ma'rifatchilik haqidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlari qisqacha bayon qilingan bo'lib, ularning tarixiy ahamiyati va o'rni haqida so'z yuritiladi. Ma'rifatli jamiyatni bunyod etish, orzu-havasdan, reallikka aylanishi uchun ajdodlardan avlodlarga tarixiy meros sifatida o'tib kelayotgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarga tayanib ish ko'rishni, undan mustahkam poydevor sifatida foydalanishni taqozo etadi. Chunki, poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa, uning ustiga qurilgan imorat ham shunchalik bardoshli bo'ladi.

Markaziy Osiyoda ma'rifatli jamiyatni shakllantirish va rivojlantirish haqidagi falsafiy qarashlarning ildizi uzoq moziyga borib taqaladi. Ularda bayon qilingan fikrlar, ayniqsa ma'rifatparvarlik va jaholatparastlik o'rtasidagi kurashning yechimini topishga qaratilgan g'oyalari hozirgi kunga qadar konseptual ahamiyatga molik bo'lgan milliy-ma'naviy qadriyat sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.



Bunda, ya'ni tarixiy makon va zamon o'lchovlariga ko'ra, ularning qaysi biri oldin paydo bo'lgan degan savol tug'iladi?. Bu savolga javob topish qiyin albatta. Shunday bo'lishiga qaramasdan, insonning bioijtimoiy mavjudod ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, jahl – bu hayvoniy hisning odamda mujassamlashgan ruhiy holatidir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, hayvoniy-ruhiy jahl, johillik, jaholatga asoslangan holda jaholatparastlik vaqt nuqtayi nazaridan oldin paydo bo'lgan deyish mumkin.

Odamning ijtimoiy mavjudod ekanligi nuqtayi nazaridan qaraganda, ma'rifatga asoslangan ma'rifatchilik, odamning o'zini hayvonot dunyosidan ajratib, ilk mehnat taqsimoti chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilikning kelib chiqishi oqibatida paydo bo'lgan, shakllana borgan. Chunki, dehqonchilik, chorvachilik, ayniqsa hunarmandchilik ilmni talab qilgan, ilm esa ma'rifiylik asosida ajdodlardan avlodlarga o'tib borgan. Shu sababli, kishilarning moddiy va ma'naviy hayotida katta sifatiy o'zgarishlar sodir bo'lishiga imkoniyatlar yaratilgan.

Jaholat esa insonning tabiat kuchlari oldidagi ojizligi, uning sir-asrorliklarini bilmasligi, oldin hosil qilingan ko'nikmalarga qattiq yopishib olganligi, ibtidoiy to'da yetakchilarini tan olmasliklari yoki aksincha, ularning topshiriqlarini vahshiylarcha bajarishlari tufayli ijtimoiy ahamiyat kasb eta borgan. Eng qadimgi va qadimgi davrlarda odamlar o'rtasida bo'lib o'tgan qonli to'qnashuvlar o'ta johillik bilan olib borilgan, bu esa, o'z navbatida jaholatparastlikning ijtimoiy ahamiyat kasb etishiga sharoit yaratib bergan.

Ushbu masalaga falsafiy jihatdan yondashadigan bo'lsak, ma'rifatparvarlik va jaholastparastlik o'rtasidagi kurash bu jamiyat mavjudligining obyektiv qonuniyatlaridan biridir.

Ma'rifatli jamiyatning obyektiv reallik sifatida paydo bo'lishi, o'z navbatida tarixiy makon va zamonda mavjud bo'lgan odamlarning ongliklik darajasiga bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ma'rifatli jamiyat oldiniga g'oya sifatida progressiv fikrlaydigan kishilar tomonidan bayon qilinadi, so'ngra uni amalga oshirishning konseptual asoslari ishlab chiqiladi, so'ngra shu asosda uning mexanizmlari yaratilib harakatga keltiriladi. Bu masala bir kunda, bir yilda emas, balkim uzoq vaqt davomida obyektiv va subyektiv omillarning faol ishtiroki asosida amalga oshiriladi.

Ma'rifatli jamiyatni shakllantirish va rivojlantirish masalasi, avvalo ma'rifatparvarlikdan boshlanadi. Bunga "oqsoch tarix" guvohlik beradi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda Markaziy Osiyoda yashab o'tgan mutafakkirlarning ma'rifatli jamiyat haqidagi falsafiy qarashlarini quyidagi davrlarga bo'lish mumkin.

1. Qadimgi davrda shakllangan ilk ma'rifatchilik g'oyalari. Markaziy Osiyo odamzod oyog'i tekkan eng qadimgi o'lkalardan biri. Bu o'lkada ular tomonidan: ilk san'at namunalari bo'lmish qoyatoshlarga chizilgan rasmlar; oldiniga tosh, so'ngra yog'och, keyichalik esa metallardan yasalgan mehnat qurollari, har xil taqinchoqlar, harbiy ahamiyatga ega bo'lgan qalqon, nayza, qilich, kamonlar, sapol buyumlarga yozilgan yozuvlar, mexanikaga oid arava g'ildiraklari, shamol tegirmonlari ixtiro qilingan maskan, turar joylar, qal'alar; suv inshootlari, xullas dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan sivilizatsiya o'choqlaridan biri sanaladi. Bularning mavjudligi mantiqan olib qaraganda zardo'shtiylikning "Avesto" kitobida bayon qilingan desak mubolag'a bo'lmaydi.

1."Avesto" ma'rifatchiligi. "Avesto" ajdodlarimiz tomonidan eramizdan oldingi IX asrlarda 12 ming ho'kiz terisiga oltin suvi bilan yozilgan, eng qadimiy she'rlar, musiqa, badiiy-



falsafiy tafakkur, diniy aqidalar, ilmiy mushohadalar, dunyoviy va diniy dunyoqarashlar, xullas ma'rifatchilik g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan eng qadimiy yozma asaridir.

"Avesto" ma'rifatchiligida ilgari surilgan g'oyalar: 1) chorvachilikni rivojlantirish uchun birinchi navbatda cho'ponlarni tayyorlash va ularga yaxshi yashashlari uchun shart-sharoitlar yaratib berish; 2) hayvonlar zoti tozaligini saqlash, ularni urchitish, sog'ligini saqlash uchun oqilona ish yuritish; 3) dehqonchilikni rivojlantirishda yerga mexanik qurilmalar yordamida ishlov berish, yerning meliorativ holatini, pokizaligini saqlash; 4) yangi kanallar qazish, ariq-zovurlarni tozalash, yerlarni o'z vaqtida ekin ekishga tayyorlash kabilar kiradi. Masalan, "Avesto" da: " O'zoq vaqt ishlov bermay va ekin ekilmay qolgan yer eng baxtsiz zamindir. U ersiz va bolasiz yurgan qari qizga o'xshaydi. Qari qiz erga tegishini xohlagani singari, haydalmagan yer qo'shchini kutadi" [1.27.], - degan bir qator ilmiy-amaliy ahamiyatga molik bo'lgan fikrlar bildirilgan.

"Avesto" da ma'rifatchilikning tamal toshini belgilab beruvchi: " Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal ni olqishlayman, Fikr, so'z va amal olamidan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amalni tanlayman" [2.34.], -degan nihoyatda chuqur mantiqiy ma'noga ega bo'lgan, ayni vaqtda yangilanayotgan O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirishga asos bo'ladigan konseptual g'oya bo'lib xizmat qilishi, shubhasizdir.

2. Markaziy Osiyo Uyg'onish davri ma'rifatchiligi. Markaziy Osiyoda islom dini VIII-IX asrlarda urush qilish, zo'rlik ishlatish va imtiyozlar yaratish orqali joriy qilingan bo'lsa-da, keyinchalik u xalqimizning imon-e'tiqodi va madaniyatiga aylanib qoldi.

Bu davrda arab xalifaligining madaniy markazlari bo'lgan Bag'dod va Damashq shaharlarida ilm-fan rivoji kuchayib ketdi. Buning sababi, bir tomondan, qadimgi Yunoniston mutafakkirlari (Platon, Aristotel, Galen, Gippokrat, Arximed va h.k.) ilmiy merosining kirib kelganligi bo'lsa; ikkinchi tomondan, qadimgi Xitoy va Hindiston olimlarining asarlari orqali ushbu mamlakatlar fan va madaniyatining keng yoyilishi, ularning arab mamlakatlari, So'g'd, Xorazm, Xuroson kabi o'lkalarda rivoj topgan fan va madaniyat bilan uzviy ravishda qo'shib ketishi bo'ldi. Bu oxir-oqibatda Sharq Uyg'onish davrining boshlanishi uchun zamin tayyorladi. Ana shu zamin asosida Markaziy Osiyoda Buxoriy, Termiziy, Nasafiy, Xorazmiy, Farg'oni, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Roziy kabi bir qator mashhur allomalar yetishib chiqdi.

Markaziy Osiyo Uyg'onish davri ma'rifatchiligining o'ziga xos jihatlari. Bular quyidagilar: a) dunyoviy ma'rifatga intilish; b) tabiatni bilishga qiziqish; v) insonni, uning aqliy, tabiiy, badiiy, ma'naviy fazilatlarini ulug'lash; g) komil insonni tarbiyalash; d) qomusiy bilimga, barcha narsalarga qiziqish kabilardan iborat edi. Shuning uchun ham bu davrda yashagan mutafakkilarning kashfiyotlari jahon ilm-fani va madaniyatining rivojiga xizmat qilgan edi.

Markaziy Osiyodagi Uyg'onish davrini IX-XII asrlarni qamrab oluvchi birinchi va XIV-XVI asrlarni o'z ichiga oluvchi ikkinchi bosqichlarga ajratish mumkin.

Forobiy ma'rifati. Uyg'onish davrining birinchi bosqichida ijod qilgan ma'rifatchi Sharq allomalaridan biri atoqli faylasuf va axloqshunos olim Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O'zlug' ibn Tarxon Forobiydir (873-950). Sharqda «Ikkinchi muallim» deb tan olingan bu alloma o'zining «Fozil odamlar shahri», «Davlat arbobining hikmatlari», «Baxt-saodatga erishuv haqida» kabi bir qator asarlari bilan axloq ilmini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan.

Forobiy ma'rifatidagi asosiy g'oyalardan birini kasb axloqining kelib chiqishi, xususiyatlari va hayotga tatbiq etilishi borasida quyidagi falsafiy fikrlari tashkil qiladi.:



«Insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilatlariga kelsak, bu fazilat tug'ma emasdir. Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganida, podshohlar ham o'zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muassar bo'lgan, tabiat talab qilgan tibbiy majburiyat bo'lib qolar edi. Nazariy va buyuk fikriy fazilat, ulug' tug'ma fazilat va kasb-hunar fazilati odat-malaka bo'lib qolgan odamda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababi bo'ladi. Bunday odamlar cheksiz va juda kuchli tabiat va iroda egalari. Xalqlar va shahar ahllarida axloq, odob, rasm-rusum, kasb-hunar odat va irodani hosil qilish uchun insondan zo'r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo'l bilan, ya'ni ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim so'z va o'rgatish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan bo'ladi» [3.284.].

Forobiyning fikricha, ma'rifatni, eng avvalo, fozillar shahrining hokimi amalga oshirmog'i kerak. Buning uchun esa : «Hokim Allohdan boshqa hech kimga bo'ysunmasligi kerak. U tabiatan to'rt muchali sog'-solim bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishida biror a'zodagi nuqson halal bermasligi zarur, aksincha, u sog'-salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim» [4.244.].

3. Islom dini ma'rifatchiligi. Diniy ma'rifatchilik buyuk ajdodlarimiz Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Hakim Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy kabi allomalar tomonidan izchillik bilan amalga oshirilgan ishlar tufayli islom dini ma'naviyat va ma'rifat olamida odamlarning e'tiqodiga aylandi. Shuning uchun ham bo'lsa kerak Hakim at-Termiziy "Kitob bay-an-al-ilm" nomli risolasida ma'rifatni nur, yorug'likka qiyoslagan edi.

Islom dinidagi ma'rifatchilikning eng asosiy g'oyalaridan birini " *Ilm egallang! Ilm – sahroda do'st, hayot yo'llarida – tayanch, yolg'izlik damlarida – yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg'uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda – quroldir*" degan hayotiy fikrlar tashkil qiladi.

" Hadis"lardan ma'rifatchilikni tarannum etuvchi namunalar quyidagilardan iborat:

" Sizlarga bir gap aytaman, yodlab qolinglar, dunyo to'rt kishinikidir: 1. Alloh taolo bir bandaga mol bergan va ilm bergan. U bandaga berilgan mol va ilmning tasarrufida taqvo qiladi va silai rahm qiladi. Ilmi va molidan Alloh uchun haq ajratadi. Bu eng afzal o'rin. 2. Bir banda bor, Alloh unga ilm bergan, lekin mol bermagan. Lekin uning niyati to'g'ri: Agar Alloh menga mol bersaydi falonchiga o'xshab sarf qilardim, Bu shu niyatiga qarab teng ajr oladi. 3. Bir banda bor. Alloh unga mol bergan, ilm bermagan. Mol tasarrufida Alloxdan qo'rqmaydi. Molidan qarindoshlariga bermaydi. Bu esa eng yomon o'rindir. 4. Bir banda bor. Alloh unga mol ham, ilm ham bermagan. U aytadiki: agar Alloh menga ham bergandaydi falonchiga o'xshash ish qilardim. U shu niyati bilan o'sha kishiga barobar hisoblanadi (savob va gunoxda)" [5.79.]

4. Markaziy Osiyodagi yangi davr – jadidlar ma'rifatchiligi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlarining milliy harakatlarini g'oyaviy-ma'rifiy tayyorlab bergan va ularni ruhlantirib turgan ma'rifatparvarlar orasida Zavqiy, Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar o'g'li, Ahmad Donish, M.Behbudiy, Munavvar qori, A.Fitrat, A.Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Tavallo kabi siymolarni e'tirof etish lozim. O'zida millat ozodligi va yurt farovonligi yo'lida mardona kurashgan, bu yo'lda ko'p qurbonlar bergan jadidlar harakati ma'rifatchilikning yorqin ifodasi edi. Shuningdek, ma'rifatchilik insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga, bir tarixiy davrdan boshqa tarixiy davrga o'tishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaning eng yetuk, ongli, oq-qorani tanigan, fidoyi, elim deb, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko'zlovchi ma'naviyatli siymolari ma'rifatchilik bilan shug'ullanadi. Ma'rifatparvarlar odatda davr uchun, jamiyatning



buguni va kelajagi uchun muhim bo'lgan g'oyalarni ko'tarib chiqadi va shu g'oyani amalga oshirish uchun izchil kurash olib boradi. Har bir davrning o'z ma'rifatparvarlari bo'ladi. Masalan, Ahmad Donish 1869 yilda, ya'ni yurti vassalga aylantirilgan davrda «Biz — o'zbeklar qachongacha g'aflat uyqusida yotamiz, qachon qoloqlikdan qutulamiz», deya fikr yuritgan. Bu qoloqlikdan qutulish yo'lini u ma'rifatda ko'radi, xalqni ma'rifatli bo'lishga chorlaydi. Keyinroq boshqa ma'rifatparvarlar ham shu g'oyani o'z asarlarida ilgari surganlar.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshida vujudga kelgan jadidchilik harakati vakillari bu borada ibratli ishlarni amalga oshirganlar. Ular 1906 yildan boshlab, Turkistonda «Taraqqiy», «Xurshid», «Tujjor», «Samarqand», «Oyina», «Buxoroyi Sharif», «Umid» kabi gazeta va jurnallar chiqarganlar, bosmaxona va nashriyotlar, kutubxonalar, teatrlar, yangicha maktablar ochganlar, xayriya jamiyatlarini tuzganlar, o'tmish madaniyatimizni, tariximizni targ'ib qilish bilan birga olamshumul yangiliklarni ham ommaga yetkazishga harakat qilib, dunyoviy bilimlarni ham chuqur egallashga da'vat etganlar. Ma'rifatchilar xalqni milliy uyg'onishga da'vat etib, «Najot-ilmu irfonda» deb bilganlar, xalqni ma'naviyat yo'liga boshlashga harakat qilganlar [6.540-541.].

Misol tariqasida bu davr ma'rifatchilik g'oyalarini M.Behbudiyning falsafiy –ma'rifiy qarashlarida ko'rib chiqaylik.

Behbudiy ma'rifati. Mahmudxo'ja Behbudiy (187–1919 yy.) islohni maktab va madrasalardan boshlash erur, chunki millat hayoti ta'lim-tarbiya bilan belgilanadi, deydi[7. 1-son]. Bizning boylarimiz o'zlarining savodsizligi uchun ham sinadilar, chunki ular savdo qilish, moliyaviy operatsiyalarni olib borish ishlarini bilmaydilar[8.2-son]. Agar biz madaniyat va iqtisod sohalarida boshqa millatlarga qaram bo'lishni istamasak, biz milliy sudyalari, advokatlar, o'qituvchilar, davlat arboblari, injener, savodli tijoratchilarni tayyorlashimiz zarur. Ular savdo idoralari va banklarda bizga yordam berishlari, bizni manfaatlarimiz, dinimizni himoyachilari bo'lmoqlari zarur. Busiz bizni kunimiz sanoqlangandir. Masala shunday ekan, siz hurmatli vatandoshlar, o'z farzandlaringizni din va millatga xizmat qilmoqlari uchun zamonaviy bilimga o'rgatishga harakat qilishingiz zarur, millat va dinga faqat bilim va mablag' bilan xizmat qilish mumkin [9.10-son].

Barcha millatlar o'z farzandlarini din va millatga sodiq bo'lish ruhida ta'lim beradilar. Shuning uchun ular maktabga alohida ahamiyat beradilar. Bizda mana shuni his qilish yo'q. Biz din va millatni himoya qiluvchi ishonarli va mustahkam vositaga ega bo'lmog'imiz shart. Bu vosita — maorifdir[10.41-son].

Behbudiy ikki darajadagi mutaxassislar tayyorlash zarurligini maslahat beradi. Birinchi darajadagilar diniy ma'lumot egalari. Bular xalqning ma'naviy nasihatgo'ylari, islomning pokligini saqlovchilardir. Ikkinchi darajadagilar zamonaviy bilimga ega bo'lganlar. Bular musulmonlar manfaatlarini ijtimoiy hayot sohasida himoya qiladilar. Shuning uchun, deydi Behbudiy, o'quvchilarni Makka, Madina, Misr va Istambulga yuborish bilan birga, Rossiyaning universitetlari va texnik o'quv yurtlariga yuborish kerak. Bundan tashqari yangi usul maktablariga o'quvchilar tayyorlash uchun Kavkaz, Qrim, Orenburg va Qozon shaharlariga ham o'quvchilar yuborish zarurligini uqtiradi[11.7-son].

M. Behbudiy til o'rganish masalasida turk xalqlarining lug'at fondidan arab va fors so'zlarini butunlay chiqarib tashlab bo'lmaydi, chunki bu so'zlar asrlar davomida singib kelgan va ma'lum tarixiy sabablarga ko'ra shu darajada uyg'unlashib ketganki, ularni chiqarib tashlash



turk xalqlarini o'zaro yaqinlashtirish o'rniga uzoqlashtirishi mumkin. Masalan, «mehmon» so'zini olaylik. Bu so'z aslida fors tilidan kirib kelgan bo'lsada turk uchun ham, fors uchun ham tushunarli, «kunak» so'zi faqat turk uchun tushunarli xolos. To'g'ri, bizning tilimizga turk so'zlarini kiritish kerak, biroq sun'iy yo'l bilan emas, asta-sekinlik bilan maqsadga muvofiq bo'lgandagina. Musulmonlarni birlashtiruvchi eng to'g'ri yo'l bu fors, arab, turk va rus tillarini o'rganishdir. Biz uchun fors tili madrasa va ulamolar tili, arab tili dinimiz tili bo'lsa, turk tili Turkiston aholisining asosiy qismining tilidir. Rus tili biz uchun nihoyat zarur, chunki biz rus tilini bilmasdan turib savdo, sanoat taraqqiyoti, din va millat uchun xizmat qila olmaymiz. Arab tili din uchun qanchalik zarur bo'lsa, rus tilini bilish ham bizning hayotimiz uchun shunchalik zarurdir. Agar arab tilini bilmasak dinni, rus tilini bilmasak boylikni qo'ldan chiqaramiz. Turk va fors tillari haqida gapirishning hojati yo'q. Chet tillaridan birini — ingliz, fransuz yoki nemis tilini bilish ham millat uchun zarurdir[12.12-son.] .

Shunday qilib ma'rifatning asl mohiyatini M.Behbudiyning quyidagi:” «Ilm-ma'rifatsiz hech bir millat ...hayot maydonida tura olmas. Xoh ul millat hokim, xoh millat mahkum bo'lsin, ilm ma'rifatdan mahrum bo'lganligi uchun boshqa san'at va hunar toji bo'lgan millatlarning oyog'i ostida ezilurga majburlarlar... Boy bo'lgan millat albatta dunyoda yashay oladur. Ul millatning diniga emas, hatto milliyatiga va shaxsiyatiga hech kim tega olmaydir... Hunarlik va boy bo'lmoq uchun nima lozimdir? Albatta, ilm va ma'rifat lozimdir... Hunarli va ma'rifatli bo'lgan millatlarning xalqlari faqir va bechora bo'lib, darvishlar qiyofasiga kirib, gadoylik qilib yurmaydilar»[13.452.] ,– degan so'zlaridan anglab olish mumkin.

Jadidlarning rahnomasi bo'lgan M.Behbudning mazkur fikrlari yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni shakllantirish va rivojlantirishda konseptual ahamiyatga ega bo'lgan manba sifatida xizmat qilishi haqiqat singari ravshandir.

Xulosa: Ma'rifatli jamiyat — bu har tomonlama dunyoviy va diniy ilmlarni egallagan, insonning barcha huquqlari ta'minlangan, aholisining turmush darajasi yuqori bo'lgan, yoshlarni ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan qadriyatlarni egallash orqali o'zligini namoyon qiladigan, tinchlik, adolat, insonparvarlik, bag'rikenglikni oliy saodat deb biladigan kishlar hamjamiyatidir. Bunday jamiyatni shakllantirish uchun davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev yozganidek:“ Shu munosabat bilan, odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Va bunda mamlakatimiz asrlar davomida jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi, umuminsoniy madaniyat markazlaridan biri bo'lib kelganligini aks ettiradigan ilmiy-tarixiy va ijtimoiy-falsafiy konsepsiyani samarali amalga oshirish lozim”[14.289.]

References:

1. Хомидий Х. “Авесто”дан “Шохнома”га.- Т.:“Шарқ”,2007.- Б.46-47.
2. Авесто.Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Т.: «Шарқ», 2001. – Б.34.
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри – Т.:Янги аср авлоди, 2016. – Б.283-284.
4. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри – Т.: Янги аср авлоди, 2016. – Б.244.
5. Муҳаммад пайғамбар қиссаси. Ҳадислар. – Т.:Камалак,1991. – Б.79.



6. Бегматов А. Маърифат. Маърифатчилик//Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 5-жилд. – Т.: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2003. – Б.540-541.
7. «Ойна», Самарқанд, 1913.1-сон.
8. «Ойна»,Самарқанд,1913.6-сон.
9. «Ойна», Самарқанд,1913,7-сон,1914,31-сон,1915,10-сон.
10. «Ойна»,Самарқанд,1914.41-сон.
11. 11.«Ойна»,Самарқанд,1913.7-сон.
12. «Ойна»,Самарқанд,1915,12-сон.
13. Ўзбек педагогикаси антологияси. Икки жилдли. Ж. 1. – Т.: Ўқитувчи, 1995. –Б. 452.
14. Мирзиев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти,2022. – Б.289